

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 17-martdagi 2/1 Hay‘at qarori bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 17-martdagi 2/1 Hay‘at qarorida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida aholi o‘rtasida ilmiy asoslangan holda kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash yo‘nalishida uslubiy ko‘maklashish hamda o‘quv mashg‘ulotlari olib borish ishlarini davom ettirish vazifasi yuklatilgan.

Shu munosabat bilan 2025-yil 15-sentabr uni Samarqand shahar Madadkor MFYda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida aholi o‘rtasida kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta‘minlash va ijtimoiy faollikni oshirish maqsadida uslubiy-amaliy tadbir tashkil etildi. Ushbu tadbirda filial Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat ishlari bo‘yicha direktorning birinchi o‘rinbosari X.I.Turdibekov, mahalla yettiligi va faollari hamda yoshlar ishtirok etishdi. Suhbat davomida kam ta‘minlangan oilalarga manzilli yordam ko‘rsatish, bandlikni oshirishga qaratilgan o‘quv-mashg‘ulotlar tashkil etish va psixologik ko‘mak berish bo‘yicha fikr almashildi, tavsiyalar berildi <https://t.me/TDIUSamfilial/30363>



**Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar
bo‘yicha direktorning birinchi o‘rinbosari**



X.I.Turdibekov